

**KLASTERI SHAROITIDA TA'LIM MARKAZLARI TA'LIM JARAYONINI RAQAMLI
TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TASHKIL QILISH VA RIVOJLANTIRISH BO'YICHA OLIB
BORILGAN XALQARO TAJRIBALAR**

Fayzullayeva Madina Abdumo'min qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti Pedagogika fakulteti
Ta'lim muassasalarini boshqaruvi yo'nalishi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim klasteri sharoitida ta'lim jarayonini raqamli texnologiyalar asosida tashkil qilish va rivojlantirish bo'yicha olib borilgan xalqaro pedagogik tajribalar yoritib berilgan. Shuningdek, ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalarni o'qitish sifatini saqlab qolgan holda samarali qo'llash uchun nimalarga alohida e'tibor qaratish lozimligi haqida ham ma'lumotlar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Klasterli yondoshuv, ta'lim, ta'lim markazlari, E.P.Belan, «GovTech Maturity Index 2022», raqamli texnologiyalar, ta'lim muassasalari, o'qituvchi, o'quvchi, otana.

Klasterli yondoshuvni pedagogik ta'lim tizimiga tadbiiq etish xususan ta'lim markazlari doirasida amalga oshirish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Ta'lim markazlaridagi ba'zi bir muammolarni bartaraf etish uchun ta'lim klasteri modelni takomillashtirish, shuningdek, ta'lim jarayonini raqamli texnologiyalar asosida tashkil qilish va rivojlantirish hozirgi kunda muhim omillaridan biri bo'lib kelmoqda. Ta'lim markazlarida ta'lim klasteri modelini takomillashtirishda barcha manfaatdor tomonlarning o'zaro hamkorligining optimal shaklda bo'lishi muhimdir. Bu bir-biri bilan o'zaro aloqada bo'lgan muassasalarini o'z ichiga oladi. Klaster doirasida har bir muassasa jamoasi, resurslari va ulardagi izchil tizimni birlashtirish biz yoshlar uchun keng qamrovli sifatli ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytiradi, shuningdek, qator pedagogik muammolarni hal qiladi.

Rus tadqiqotchisi E.P.Belanning fikricha, klasterning tashkiliy shakli klaster tarkibiy qismiga kiruvchi barcha muassasalar uchun imtiyozlar beradi, bu esa o'z sa'y-har akatlarini birlashtirish va ta'lim tizimining samaradorligini oshirish, ta'limni individuallashtirishni kuchaytirish va integratsiyalashgan ta'lim muhiti yaratish imkonini beradi. O'z navbatida klaster modeli hamkorlikdagi muassasa tashkilotlarning o'zaro majburiyatlar va birgalikdagi faoliyat bilan bog'langan. [1]

Ta'lim klasteri sharoitida ta'lim jarayonini raqamli texnologiyalar asosida tashkil qilish va rivojlantirish ta'lim markazlaridagi bolalarni jamiyatdagi bazi bir muammolarini tizimli hal etishga qodir. Albatta ushbu yondashuvlar orqali ta'lim jarayonida klaster jarayonini takomillashtirish va samarali natijalarga erishish uchun har bir ta'lim muassasida o'quvchilar bilan individual integral yo'nalishida ishlashga tayyor bo'lgan mutaxassislar va o'qituvchilar jamoasi tomonidan tashkil etiladi.

O'zbekiston Jahon banki tomonidan tuzilgan «GovTech Maturity Index 2022» hisobotiga ko'ra, davlat sektorida axborot texnologiyalarini rivojlantirish xalqaro reytingida 198 mamlakat orasida 43-o'rinni egalladi. Bu 2020 yil bilan taqqoslaganda mamlakatimiz mavqeini sezilarli darajada yaxshilab olganini ko'rish mumkin: 37 ta o'ringa yuqorilagan. Xususan, «GovTech Enablers» raqamli ko'nikmalar va davlat xizmatlaridagi innovatsiyalar indeksiga ko'ra, O'zbekiston dunyoda 4-o'rinni egalladi (2020 yil bilan solishtirganda 65 pog'ona ko'tarilgan).[2]

Yuqorida berilgan ma'lumotlarga qaraganda raqamli texnologiyalarni bizning hayotimizga jadallik bilan kirib kelayotganini guvohi bo'lamiz. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar hayotning barcha sohalarida faol qo'llanilmoqda. Davlat va jamiyat boshqaruvi, ijtimoiy sohada ham raqamli texnologiyalarni keng joriy etib, natijadorlikni oshirish, bir so'z bilan aytganda, odamlar turmushini keskin yaxshilash mumkin. Ta'lim tizimi bugungi kunda

raqamli texnologiyalarga singib ketayotgani shunchaki hayratlanarli emas, chunki, bugungi kunda axborot makonida taklif etilayotgan ko'plab narsalarni jiddiy tahlil qilish va pedagogik asoslash uchun asos bo'lib xizmat qiladi. So'nggi yillarda ta'limni «raqamlashtirish» muammolarini hal qilish bo'yicha birqancha davlat loyihalari yoki so'rovnoma asosida tadqiqotlar o'tkazilayotganligi ham ma'lum. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, oldinlari raqamli texnologiyalarni ma'lum bir sohalarida joriy etish bilan cheklanib qolgan edik. Bugungi kunda esa raqamli texnologiyalar shiddat bilan rivojlanib borayotganini e'tiborga olib, raqamli rivojlanish bo'yicha barcha sohalar tarkibiga, xususan, ta'lim sohasiga ham kiritilmoqda.

Bugungi kun auditoriyalari o'n yil avvalgilaridan juda katta farq qiladi va o'quv xonalari kompyuterlar, televizorlar, smart-doskalar va boshqa turdagi ta'lim texnologiyalari bilan jihozlangan. Dunyoning boshqa joylarida bo'lgani kabi O'zbekistonda ham raqamli texnologiyalar paydo bo'lmoqda. Bunday raqamli texnologiyalar bilan doimiy o'zaro munosabat natijasida bugungi kun yoshlarining fikrlashi oldingi fikr yuritishdan tubdan farq qilmoqda. Zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan innovatsion ta'lim texnologiyalarini ommaviy va samarali qo'llash orqali ta'lim tizimini raqamli avlodga moslashtirish lozim. Shu bilan birga, ta'lim jarayonida tadqiqotga asoslangan yondashuvdan faol foydalanish zarur. Bu orqali izlanuvchi yoshlarning ko'nikmalarini rivojlantirish va ITga asoslangan ijodiy fikrlashlarini shakllantirish mumkin. Raqamli texnologiyalar – ta'lim tizimidagi barcha muammolarga yechim emas, balki raqamli avlod uchun ma'lumotlarga boy va o'qish jarayonini interaktiv qilib amalga oshirish vositasidir.

Azaldan ma'lumki ta'lim jarayonini raqamli texnologiyalar asosida tashkil qilish va rivojlantirish keng qo'llanib kelinayotgan tushuncha hisoblanib, tinimsiz izlanuvchilar tomonidan talab qilinadigan jarayonlar sifat va samaradorligini o'sishni ta'minlovchi yangilikdir. Bu esa insonning intellektual faoliyati hamda uning tasavvuriy natijasidir. Ilmiy izlanish jarayonida asosan raqamli texnologiyalar muhim o'rin tutadi. Raqamli texnologiyalarni ta'lim tizimiga tatbiq etilishi klaster asosida ta'lim samaradorligi yanada sifatli amalga oshiriladi. Yana shuni alohida ta'kidlash joizki, ta'lim - bu pedagogik faoliyatda inson tomonidan olingan tizimli ko'nikmalar, ko'nikmalar esa bilimlar to'plami hisoblanib, ta'lim muassasalarida yoki mustaqil bilim olish yordamida erishiladi.

Axborotlashuv asrida davlatning innovatsion imkoniyatlarini ta'lim jarayonida shakllantirishda asosiy vazifa o'qituvchilar zimmasiga tushmoqda. Bunday muhim vazifani zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini mukammal egallagan, bilim, ko'nikma va malakalarini takomillashtiruvchi, ishiga kreativ yondashuvchi, individual tarzda ham o'z ustida doimiy ishlaydigan o'qituvchigina hal eta oladi. Zamon shiddat bilan rivojlanayotgan bir paytda ta'lim ham bir joyida turib qolmaydi. Hozirda davr talabi bilan ta'limning an'anaviy shakllari o'rniga ta'limning noan'anaviy shakllari kirib keldi. Ta'limning shunday shakllari orqali tashkil etilgan darslar o'quvchilarga yoqadi, ularda qiziqish uyg'otadi, ularga ko'plab yangiliklar beradi va olg'a intilishiga motivatsiya ham bag'ishlaydi. Zamonaviy ta'lim o'quvchi oldiga: bilimlarni erkin egallash, turli vaziyatlarda turli insonlar bilan munosabatda bo'lishni bilish, shu bilan birga o'z oldiga o'zini erkin, ishonchli his qilish kabi maqsadlarni qo'yadi. O'quvchining bilim, ko'nikma va malakalarining rivojlanishi uchun uning faoliyatini to'g'ri tashkil etish zarur. O'quv materialini sust idrok etish jarayonida rivojlanish sodir bo'lmaydi. O'quvchining o'z harakatlari kelajakda uning qobiliyati shakllanishining asosi bo'ladi. Shunday ekan ta'limning vazifasi o'quvchilarni harakatlarga undovchi vaziyatlarni tashkil etishdan iborat. Bir so'z bilan aytganda, o'qituvchilar har bir o'quvchi turli vaziyatlarda topshiriqlarni to'g'ri yecha olishda individual vositalari va usullarini shakllantirishga yordam beruvchi maxsus o'quv sharoitlarini yaratishlari zarur. Bu esa o'z navbatida ta'lim tizimining oldiga qo'ygan natijalarga erishish texnologiyasining muhim masalalaridan biri

sanaladi. Ta'lim jarayonini rivojlantirishda raqamli texnologiyalar juda muhim hisoblanadi.
[3]

Raqamli texnologiyalarni qo'llash o'quvchilarning qiziqishlarini oshirishga va ijobiy motivatsiyasini shakllantirishga yordam beradi, chunki o'quvchilarning individual ta'lim imkoniyatlarini va ehtiyojlarini maksimal hisobga olish, o'quv mashg'ulotlari mazmuni, shakllarini tanlash keng imkoniyatlari, o'quvchilarning ijodiy imkoniyatlarini ochib berish, o'quvchilarni zamonaviy axborot texnologiyalarini o'zlashtirishlariga yordam beradi. Shu sababli bizning tadqiqotimiz ham ta'lim klasteri sharoitida, ya'ni talim markazlari, ta'lim muassasalari, o'quvchining ota-onasi shuningdek, izlanuvchi yoshlarning individual ishlash jarayoni bilan birgalikda ta'lim jarayonini raqamli texnologiyalar asosida tashkil qilish va rivojlantirish bo'yicha bo'ldi. Bunda raqamli texnologiyalar imkoniyatlaridan raqamli o'quv resurslarini, individual testlar masofaviy darslarni tashkil etishda foydalanilishi mumkin.

Axborotlashtirishning milliy tizimini shakllantirish, iqtisodiyot va jamiyat hayotining barcha sohalarida zamonaviy axborot texnologiyalarini, kompyuter texnikasi va telekommunikatsiya vositalarini ommaviy ravishda joriy etish hamda ulardan foydalanish, fuqarolarning axborotga ortib borayotgan talab-ehtiyojlarini yanada to'liqroq qondirish, jahon axborot hamjamiyatiga kirish hamda jahon axborot resurslaridan bahramand bo'lishni kengaytirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish maqsadida raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayonida faol foydalanishni yo'lga qo'yishimiz kerak.

Mamlakatimiz zamonaviy ta'lim tizimida turli texnologiyalardan foydalanish o'quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida yechish imkonini beradi. Shu maqsadda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta'lim jarayoniga tatbiq etishda alohida e'tibor qaratilishi darkor.

Hozirgi talabalar an'anaviy uslubda o'qishni istamaydi, aksincha, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan innovatsion ta'lim tarafdori. Shuning uchun axborot texnologiyalarini ommaviy va samarali qo'llash orqali ta'lim tizimini raqamlashtirish davr talabi. Endi o'qituvchilar ham odatiy usulda o'qitmaydi. Chunki rivojlangan davlatlarda bo'lgani kabi O'zbekistonda ham intellektual salohiyati yuqori avlod voyaga yetmoqda. Bunday muhitda kamol topayotgan yoshlarning fikrlashi va axborotni qabul qilish tarzi oldingi fikr yuritish va bilim olish jarayonidan tubdan farq qiladi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayonida qo'llash yurtimiz ta'lim sifatiga ham albatta o'zining ijobiy ta'sir ko'rsatishi shubhasiz. Xususan, ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalarni qo'llashga qiziqish va zamonaviy usullarni joriy etishga e'tibor kun sayin kuchaymoqda. Sababi, ilgari o'quv maqsadi yoshlarning tayyor bilimlarni o'zlashtirib, yodlab olishiga qaratilgan edi. Endi zamonaviy texnologiyalar ularni bilimni o'zi qidirib topishga, mustaqil xulosalar chiqarishga o'rgatmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Shukurova, D. S. Q. (2022). Ta'lim klasteri sharoitida inklyuziv ta'limning innovatsion mexanizmlari. *Academic research in educational sciences*, 3(3), 529-532.
2. O'zbekiston «yetakchi raqamli davlatlar» reytingida «A» guruhidan joy oldi (xabar.uz)
3. Yarashov, M. (2021). Talim tizimida raqamli texnologiyalarning o'rni. *Ilmiy nashrlar markazi (buxdu.uz)*, 5 (5).